



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

*Qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik subyektlarisiz*

*2024-yil yanvar-sentabr davri
uchun ma'lumotlar dastlabki,
o'tgan davrlar uchun
ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi.*

PRESS-RELIZ




**2024 - yil
yanvar-sentabr**

O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.


O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(yanvar-sentabr)



O'rtacha oylik ish haqi hududlar kesimida

(qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-sentabr, ming so'mda)



➤ HUDUDLAR KESIMIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi dinamikasi

(qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-sentabr, ming so'mda)


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichlari **Toshkent shahrida** (8 683,6 ming so'm), **Navoiy viloyatida** (6 610,9 ming so'm), **Toshkent viloyatida** (4 954,5 ming so'm), **Andijon viloyatida** (4 462,8 ming so'm) hamda **Buxoro viloyatida** (4 199,3 ming so'm) kuzatildi.




● Andijon viloyati




● Buxoro viloyati




● Jizzax viloyati



● Qashqadaryo viloyati



● Navoiy viloyati




● Namangan viloyati

➤ HUDUDLAR KESIMIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi dinamikasi

(qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-sentabr, ming so'mda)



● Samarkand viloyati



● Surkhondaryo viloyati




● Sirdaryo viloyati



● Tashkent viloyati



● Farg'ona viloyati



● Xorazm viloyati



● Tashkent shahri


2024-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori o'sish sur'atlari **Toshkent shahrida** (120,1 %), **Samarkand viloyatida** (117,8 %), **Andijon viloyatida** (116,2 %), **Namangan viloyatida** (115,3 %) hamda **Sirdaryo viloyatida** (115,1 %) kuzatildi.

HUDUDLAR KESIMIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




O'rtacha oylik ish haqining hududlar bo'yicha 2014-2024-yillarda o'zgarish dinamikasi

(qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-sentabr, ming so'mda)




Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan hududlardagi o'rtacha oylik ish haqi

(yanvar-sentabr holatida, % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar sonining jamiga nisbatan ulushi

(Korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz) mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan, o'rtacha oylik ish haqini hisoblashda hisobga olinganlar, yanvar-sentabr holatida, % da)



O'rtacha oylik ish haqini hisoblashda jami
3 121 641
nafar xodim
ma'lumotlaridan foydalanilgan.




O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar; shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-2024-yillarda o'zgarish dinamikasi

(yanvar-sentabr, ming so'm)



Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar; mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar; shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.

➤ O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

Hududlar va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining 2020-yil mos davriga nisbatan o'zgarishi

(yanvar-sentabr, martaga)

Respublika bo'yicha:

x 1,99 martaga oshgan

Qoraqalpog'iston Respublikasi

x 1,77

Xorazm

x 1,91

Navoiy

x 1,94

Buxoro

x 1,74

Qashqadaryo

x 1,82

Samarqand

x 1,87

Surxondaryo

x 1,77

Jizzax

x 1,84

Sirdaryo

x 1,86

Namangan

x 1,85

Toshkent sh.

x 2,30

Toshkent v.

x 1,81

Andijon

x 1,90

Farg'ona

x 1,85



x 2,44

Tashish va saqlash



x 2,97

Axborot va aloqa

x 2,49

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati

x 1,80

Sanoat



x 2,36

Savdo



x 1,82

Qurilish



x 1,80


Ta'lim

x 1,83

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi

(yanvar-sentabr, % da)



Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etilgan ba'zi tarmoqlar

(yanvar-sentabr, ming so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida:

- Axborot va aloqa
- Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati
- Tashish va saqlash
- Sanoat
- Ta'lim
- Savdo

TARMOQLAR:

- 1 Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar
- 2 Majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati
- 3 Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat
- 4 Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat
- 5 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar


- 6 Aloqa sohasi
- 7 Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati
- 8 Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- 9 Oliy ta'lim
- 10 Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

MA'LUMOT UCHUN

Barcha yuridik shaxslar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari bilan birga, yanvar-dekabr)




Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda




Ma'lumot uchun: Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga so'nggi marta 2023-yil 1-dekabrda o'zgartirish kiritildi hamda **1 050,0 ming so'mga** yetkazildi.

2024-yil yanvar-sentabr oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.

Ba'zi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbati (yanvar-sentabr, % da)




Yillar kesimida nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari bilan birga) va iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlari, % da



▶ O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

2023-2024- yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi




O'rtacha oylik ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, (yanvar-sentabr, ming so'm)




2024 - yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichi – **bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati** sohasiga to'g'ri kelib, 14 488,8 ming so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, **axborot va aloqa sohasi** 12 799,7 ming so'mni, **tashish va saqlash sohasi** 8 073,7 ming so'mni va **sanoat sohasi** 6 286,7 ming so'mni tashkil etib, o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. **Ta'lim** (3 484,7 ming so'm) hamda **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** (3 300,7 ming so'm) sohalari esa boshqa sohalarga nisbatan eng quyi pog'onalarda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Oylar kesimida sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i** (8 500,2 ming so'm), **elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** (7 186,8 ming so'm) hamda **ishlab chiqarish sanoatida** (5 899,1 ming so'm) kuzatildi.

SANOAT SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI


Sanoat sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi

(yanvar-sentabr holatida, ming so'm)



Hududlar kesimida

(yanvar-sentabr, ming so'm)



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(yanvar-sentabr, ming so'm)




O'sish, % da

Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Navoiy viloyatida** (9 510,5 ming so'm), **Toshkent shahrida** (7 320,1 ming so'm) hamda **Andijon viloyatida** (6 423,9 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Jizzax** (23,0 %), **Sirdaryo** (20,5 %), **Samarqand** (19,7 %) va **Andijon** (118,9 %) viloyatlarida qayd etildi.

o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish, % da

Oylar kesimida qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Hududlar kesimida

(yanvar-sentabr, ming so'm)

Toshkent	8 617,9	+10,3
Navoiy	7 262,1	+9,5
Toshkent sh.	6 596,3	+11,6
Jizzax	5 267,5	+18,2
Xorazm	4 941,9	+34,4
Buxoro	4 806,6	+10,8
Namangan	4 671,3	+33,7
Qashqadaryo	4 275,4	+5,9
Andijon	4 243,9	+12,6
Samarqand	4 227,3	+22,0
Surxondaryo	3 869,4	-0,2
Sirdaryo	3 862,0	+25,9
Farg'ona	3 627,9	+5,5
Qoraqalpog'iston R.	3 463,8	-1,9

● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish (kamayish), % da

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(yanvar-sentabr, ming so'm)




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent viloyati** (8 617,9 ming so'm), **Navoiy viloyati** (7 262,1 ming so'm) hamda **Toshkent shahrida** (6 596,3 ming so'm) qayd etildi.



Oylar kesimida savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi



+30,4 +21,7 +28,4 +31,3 +30,4 +14,0 +27,5 +27,3 +21,0 +28,5 +20,1 +21,9



ming so'm

o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish, % da

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi

(yanvar-sentabr, ming so'm)



5 599,6

Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
chakana savdo



6 380,3

Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
ulgurji savdo




7 431,3

Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash


Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash sohasida** (7 431,3 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdoda** (5 599,6 ming so'm) kuzatildi.



Savdo sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Hududlar kesimida (yanvar-sentabr, ming so'm)



● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish, % da

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




● O'sish, % da

Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (6 773,7 ming so'm), **Jizzax** (6 255,9 ming so'm) va **Buxoro** (5 358,0 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Jizzax** (210,9 %), **Farg'ona** (196,2 %), **Surxondaryo** (155,0 %) va **Navoiy** (138,8 %) viloyatlarida qayd etildi.



Oylar kesimida tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi

(yanvar-sentabr holatida, ming so'm)



10 209,6

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



6 924,7

Quruqlikdagi va quvur transporti




3 743,4

Pochta va kuryerlik faoliyati

Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyatida** (10 209,6 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **pochta va kuryerlik faoliyatida** (3 743,4 ming so'm) kuzatildi.




Tashish va saqlash sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Hududlar kesimida

(yanvar-sentabr, ming so'm)



● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish, % da


O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, (yanvar-sentabr, ming so'm)




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** (9 579,6 ming so'm), **Xorazm viloyatida** (8 793,6 ming so'm) va **Samarqand viloyatida** (7 885,8 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Samarqand** (147,5 %), **Jizzax** (139,6 %) hamda **Sirdaryo** (128,8 %) viloyatlarida qayd etildi.



Oylar kesimida axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarda** (18 044,7 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **aloqa sohasida** (10 807,4 ming so'm) kuzatildi.



Axborot va aloqa sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Hududlar kesimida (yanvar-sentabr, ming so'm)



● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish (kamayish), % da

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




● O'sish, % da

Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** (14 448,4 ming so'm), **Andijon** (8 912,9 ming so'm) hamda **Samarqand** (8 767,7 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Toshkent shahrida** (124,2 %) hamda **Samarqand** (118,7 %) viloyatida qayd etildi.



Oylar kesimida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi (yanvar-sentabr, ming so'm)



14 253,6

Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari **moliyaviy xizmatlar**



16 833,0

Majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati



15 575,8


Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha **yordamchi faoliyat**

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyatida** (16 833,0 ming so'm) eng past ko'rsatkichi esa **sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlarda** (14 253,6 ming so'm) kuzatildi.


▶ BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK FAOLIYATI SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)



Hududlar kesimida (yanvar-sentabr, ming so'm)



● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish, % da


O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




● O'sish, % da

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** (17 877,2 ming so'm), **Andijon** (13 583,5 ming so'm) va **Navoiy** (12 766,8 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Qashqadaryo viloyatida** (20,1 %) hamda **Andijon viloyatida** (19,4 %) qayd etildi.

Oylar kesimida ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi




Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi (yanvar-sentabr holatida, ming so'm)




Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **oliy ta'limda** (8 115,6 ming so'm), eng past ko'rsatkich esa **maktabgacha ta'limda** (1 874,5 ming so'm) kuzatildi.



Ta'lim sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)



Hududlar kesimida (yanvar-sentabr, ming so'm)



● o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish, % da



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)



● O'sish, % da

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** (5 768,2 ming so'm), **Namangan** (3 464,9 ming so'm) hamda **Toshkent viloyatlarida** (3 439,9 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Toshkent shahrida** (116,3 %) va **Samarqand viloyatida** (115,8 %) qayd etildi.

Oylar kesimida sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida o'rtacha oylik ish haqi




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** (4 136,6 ming so'm), **Xorazm viloyatida** (3 567,6 ming so'm) hamda **Qoraqalpog'iston Respublikasida** (3 542,4 ming so'm) kuzatildi.




Oylar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Hududlar kesimida (yanvar-sentabr, ming so'm)




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi (yanvar-sentabr, ming so'm)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Samarqand viloyati** (5 675,5 ming so'm), **Toshkent shahri** (5 109,7 ming so'm) hamda **Qoraqalpog'iston Respublikasida** (4 383,3 ming so'm) kuzatildi.



Oylar kesimida san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida o'rtacha oylik ish haqi




Hududlar kesimida (yanvar-sentabr, ming so'm)



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

(yanvar-sentabr ming so'm)



San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasining faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent viloyatida** (6 150,7 ming so'm), **Toshkent shahrida** (4 817,5 ming so'm) hamda **Qashqadaryo viloyatida** (4 541,9 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Farg'ona** (31,3 %) hamda **Surxondaryo** (24,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI BO'YICHA STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni – o'ying ma'lum bir sanasiga, ya'ni birinchi yoki oxirgi sanasiga ko'rsatiladi. Bunda haqiqatda ishlayotganlar, vaqtincha ishlamayotgan, biroq ishga rasman birlashtirilganligi huquqini saqlab qolganlar ham hisobga olinadi. Bitta tashkilotning ichida ichki o'rindosh sifatida rasmiylashtirilgan xodim bir kishi sifatida hisobga olinadi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida keltirilganlar va boshqa mehnatga oid qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda keltirilganlar kiritiladi.

Quyidagi xodimlar mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar tarkibiga kiritilmaydi: boshqa tashkilotlardan o'rindoshlik bo'yicha ishga qabul qilinganlar; fuqarolik-huquqiy tuzilgan shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar; tashkilot tomonidan, ishdan ajralgan holda, ta'lim muassasalariga yuborilganlar.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Hisobot oyini qo'shgan holda, yil boshidan hisobot davridagi xodimlarning o'rtacha soni o'tgan jami oylardagi xodimlarning o'rtacha oylik sonini qo'shish va olingan summani hisobot davridagi oylar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



DEMOGRAFIYA, MEHNAT VA GENDER STATISTIKASI BOSHQARMASI



Tel.: 71 203 80 00 (ichki 1240)



z.yuldoshev@stat.uz

PRESS-RELIZ

